
STATISTIKA



Statistika

Tumanda o'tgan 12 oyda ro'yxatga olingan ushbu **65 ta** jinoyatlarning **43 tasi** yoki **66,2 foizi** hisobot yilida sodir etilgan.

2023 yilning o'tgan 12 oyida ro'yxatga olingan jinoyatlar 65 tani tashkil etib, har 100 ming aholiga (82.032 nafar) **79,2 tadan** to'g'ri kelib, viloyat ko'rsatkichidan (327,5) past bo'lgan.

Xususan, ro'yxatga olingan olingan jinoyatlar 65 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan voyaga yetmaganlar jinoyati 4 tani yoki 6,1 foizi, ayollar 5 tani yoki 7,6 foizi, yoshlar 21 tani yoki 32,3 foizi, guruhlar 13 tani yoki 20,0 foizi, ishlamaydigan va o'qimaydiganlar tomonidan 2 tani yoki 3,0 foizni tashkil etgan.

Mahalla jinoyatchiligi, ya'ni o'tgan 12 oy davomida, jami hisobga olingan **65 ta** jinoyatlarning **26 tasi** (41,3 foiz) **mahallalarda** sodir etilgan bo'lib, viloyat ko'rsatkichidan past bo'lgan.

Tuman hududida **27 ta** mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, ularning **7 tasida** jinoyatchilik o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan, **7 tasi** barqaror saqlangan, **6 tasida** kamaygan, **7 tasida** jinoyat sodir etilmagan.

Tuman prokuraturasi 2023 yil o'tgan 12 oyida jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati yuzasidan tuman ichki ishlar bo'limida **38 ta tekshirishlar** o'tkazilib, natijasiga ko'ra, aniqlangan **490 ta** qonunbuzilish holatlariga nisbatan jami **100 ta prokuror nazorati** hujjatlari qo'llanilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-22 15:42:07